

GEOGRAFIYA TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Jo`rayeva Matluba Husniddinovna

Buxoro vil Jondor tum 13-maktab geografiya fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada geografiya ta'limini tashkil etish shakllari, geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish muammolari, geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash texnologiyasi, geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida atroflicha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *geografiya ta'limi, pedagogik texnologiyalar, metodik ishlar, tayanch konspektlar.*

Kirish:

Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash juda asosiy vazifalardan biri sanaladi. Agar tegishli metod noto'g'ri tanlangan bo'lsa o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tanlash ma'lum bir tamoyillar yordamida olib borilmog'i zarur. O'zbekistonda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish va geografik texnologiyalarni ishlab chiqish borasida ilmiy va metodik ishlar endi boshlanmoqda, lekin bu sohada yirik ko'zga ko'rinadigan ishlar yechimi topilgani yo'q.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Pedagogik texnologiyalarni ajralmas qismi bo'lgan test topshiriqlari barcha fanlarda, ayniqsa Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida keng foydalana boshlandi. Shuni ham aytib o'tish joizki, hamma o'quv fanlarida ham test topshiriqlarini tuzish to'g'risida aniq bir metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarga va testlarni faqat bir yo'nalishda tuzilishiga olib keldi.

Testologiya, ya'ni o'qitish maqsadlarini test topshiriqlari yordamida ifodalash pedagogik texnologiyalarni oxirgi bosqichlaridan biri sanaladi. Demak, O'zbekistonda va boshqa MDH davlatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni ma'lum bir bo'g'inlaridan foydalanish ancha oldin boshlangan. Geografiya ta'limida ko'pincha o'qitish texnologiyalari ancha avvaldan boshlab qo'llanilib kelinadi, ayrimlari endi foydalanilmoqda.

Natijalar:

I.V.Dushina geografiya ta'limida foydalaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo'lgan: mantiqiy tayanch konspektlar texnologiyasi; o'quv ishlari usullarini takomillashtirish texnologiyasi; o'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi; kommunikativ - aloqa texnologiyasi; o'quvchilarni loyixalar tuzish faoliyati texnologiyasi.

Bugungi kunda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashni ilmiy-metodik asoslari quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilishi darkor. Geografiya ta'limini maqsadlarini aniqlash. Geografiya ta'limining maqsadlari va vazifalari mavjud ta'lim standartlarida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Standartlar bo'yicha har bir geografiya predmeti to'g'risida ta'lim maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Geografiya ta'limining asosiy ko'rsatkichlarini B. Blunning taksonomik birliklari orqali ifodalansa ular aniq bir

o'lchamlarga ega bo'lar edi. Mazkur masala sohasida bugungacha geografiya ta'limida sezilarli ishlar olib borilayotgani yo'q.

Muhokama:

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy - ijtimoiy qismlardan iborat bo'lganligi uchun unda tabiat va jamiyatdagi barcha muammolar mujassamlashgan. Ushbu masalalar tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar hamda ularni o'zaro ta'siri natijasida takomillashadi va shakllanadi. Ushbu masalalardan ta'lim jarayonida qo'llanishning eng asosiy shartlaridan biri bo'lib ularni kelib chiqishiga ko'ra guruhlariga ajratishdir.

Umumta'lim maktablari geografiya darslarida jadvallardan keng foydalanilgan. Tabiiy geografiya darslarida jadvallar asosan ilovalarda berilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida matndagi jadvallar ko'proq o'rin olgan. Jadvallarda ko'proq iqtisodiy ko'rsatgichlar berilgan. Ular yordamida ma'lum bir iqtisodiy tarmoqni o'sish dinamikasini ochib berish mumkin.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktab geografiya ta'limida juda ko'p sonli ma'lumotlar mavjud. Ular tabiatshunoslik kurslaridan tortib amaliy geografiya kurslarigacha uchraydi. Sonli, ya'ni statistik ma'lumotlar bilan ishlash malakalarini takomillashtirish o'quvchilarni bilish va fikrlash faoliyatini shakllantirishda juda yuqori ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdug'aniev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent "O'qituvchi" 2000.
2. Vaxobov X., Abdunazarov O., Zaynutdinov A. Geografiya ta'limida darsliklar yaratish muammosi. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. T. 2000.
3. Vaxobov X., Abduraxmonov B., Eshpo'latova N. Umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassalarida geografiya ta'limining o'rni va tuzilishi. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 25 jild, T.2003.
4. Kutiinikov S.E. Geografiya o'qitishda modul blokli sikllar. Maktabda geografiya, 2000.
5. Vaxabov X., Rafiqiov A.A. O'zbekiston tabiatini muxofaza qilish. Universitet. T. 2001.